




2021- yil yanvar-sentabr



2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi


## Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

### Dastlabki ma'lumotlar


➤ 2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM dagi ulushi 69,9 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **21,6** birlikni tashkil qildi.

➤ 2021- yilning yanvar-sentabrida **1802** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **24,8** foizga kam demakdir.



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 704 ta, sanoatda 389 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 248 ta, qurilishda 129 ta, yashash va ovqatlanishda 91 ta, tashish va saqlashda 36 ta tashkil etilgan.

### Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2020- y.	2021- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	12914	14555	1641
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	2395	1802	-593
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	71,9	69,9	-2,0
Sanoat	%	40,6	39,6	-1,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,1	97,7	0,6
Investitsiya	%	45,5	50,3	4,8
Qurilish	%	95,9	78,1	-17,8
Chakana savdo	%	83,7	91,5	7,8
Xizmatlar	%	56,7	54,4	-2,3
Yuk tashish	%	95,4	93,9	-1,5
Yuk aylanmasi	%	96,0	88,1	-7,9
Yo'lovchi tashish	%	94,7	94,9	0,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,3	97,2	-0,1
Eksport	%	76,3	77,6	1,3
Import	%	62,4	63,0	0,6



**2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da**

**YaHM**  
69,9%

**Savdo**  
91,5%

**Sanoat**  
39,6%

**Qurilish**  
78,1%

**Investitsiya**  
50,3%

**Eksport**  
77,6%

**Xizmatlar**  
54,4%


**Import**  
63,0%

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	farqi (+;-)
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2395</b>	<b>1802</b>	<b>-593</b>
<i>shahar</i>			
Guliston	2395	1802	-593
Shirin	77	59	-18
Yangiyer	499	449	-50
<i>tumanlar</i>			
Oqoltin	221	121	-100
Boyovut	227	150	-77
Sayxunobod	207	119	-88
Guliston	162	125	-37
Sardoba	188	127	-61
Mirzaobod	245	174	-71
Sirdaryo	278	265	-13
Xovos	157	97	-60



**2021- yil yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da**




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Guliston shahri – 24,9 %, Sirdaryo tumani – 14,7 %, Mirzaobod tumani – 9,7 %, Boyovut tumani - 8,3 %, Sardoba tumani – 7,0 %, hissalari to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- y. yanvar-sentabr	2021- y. yanvar-sentabr	farq. (+;-)
<b>Jami</b>	2395	1802	<b>-593</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	522	248	-274,0
<b>Sanoat</b>	444	389	-55,0
<b>Qurilish</b>	155	129	-26,0
<b>Savdo</b>	940	704	-236,0
<b>Tashish va saqlash</b>	41	36	-5,0
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	108	91	-17,0
<b>Axborot va aloqa</b>	27	30	3,0
<b>Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	28	18	-10,0
<b>Boshqa faoliyat turlari</b>	130	157	27,0

**Ma'lumot uchun:** 2021– yilning yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




**Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**


	2020-yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi(+;-)
Guliston shahar	499	449	-50
Sirdaryo tumani	278	265	-13
Mirzaobod tumani	245	174	-71
Boyovut tumani	227	150	-77

2021-yilning yanvar – sentabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Guliston shahrida– 449 tani tashkil etdi.



**Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**




**Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra\***

2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida 43,8 birlik, Oqoltin tumanida 21,9 birlik, Guliston tumanida 22,0 birlik, Sayxunobod tumanida 22,2 birlik, Mirzaobod tumanida 21,0 birlik, Yangiyer shahrida 20,9 birlik tashkil etgan. Boyovut tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 13,3 birlikka to'g'ri keldi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



**2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\***



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

**Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)****Eng yuqori ko'rsatkich**

- **Guliston shahri**
- **43,8 birlik.**

**O'rtacha ko'rsatkich**

- **Yangiyer shahri**
- **20,9 birlik.**

**Eng past ko'rsatkich**

- **Boyovut tumani**
- **13,3 birlik.**

**Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-sentabr holatiga ko'ra, % da**

2021- yilning yanvar - sentabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,9 %ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-sentabrda 71,9 %).

**69,9 %****2021 y.**

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushi bilan izohlanadi.

**71,9 %****2020 y.**



**2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, % da**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Investitsiya</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>39,6</b>	<b>78,1</b>	<b>54,4</b>	50,3
<i>shahar</i>				
Guliston	68,2	98,3	33,9	22,3
Shirin	0,8	55,5	91,2	11,4
Yangiyer	55,9	99,6	79,7	83,5
<i>tumanlar</i>				
Oqoltin	59,3	99,8	68,8	47,5
Boyovut	90,6	96,2	53,1	79,8
Sayxunobod	57,9	99,2	63,6	87,5
Guliston	45,0	72,6	67,8	72,2
Sardoba	100,0	99,6	70,3	33,8
Mirzaobod	79,3	72,8	75,2	85,0
Sirdaryo	53,6	42,9	75,0	43,8
Xovos	86,1	51,2	68,4	87,0


Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**  
**Sardoba (100,0 %),**  
**Boyovut (90,6 %),**  
**Xovos (86,1 %),**  
**Mirzaobod (79,3 %),**  
**Guliston sh.(68,2 %) va**  
**Oqoltin (59,3 %) tumanlarida.**


**Qurilishda-**  
**Oqoltin (99,8 %),**  
**Yangiyer sh. (99,6 %),**  
**Sardoba (99,6 %),**  
**Sayxunobod (99,2 %),**  
**Guliston sh. (98,3 %) va**  
**Boyovut (96,2 %) tumanlarida.**

**Xizmatlarda-**  
**Shirin sh. (91,2%),**  
**Yangiyer sh. (79,7 %),**  
**Mirzaobod (75,2 %),**  
**Sirdaryo (75,0 %),**  
**Sardoba (70,3 %) va**  
**Oqoltin (68,8 %) tumanlarida.**

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 136,3 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 77,6 % ini tashkil etdi.




**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Xovos tumanida – 100 %, Sayxunobod tumanida – 100 %, Yangiyer shahrida – 99,9 %, Sardoba tumanida – 99,4 %, Mirzaobod tumanida – 96,0 %, Oqoltin tumanida – 78,5 % ni, eng past ko'rsatkich Guliston tumanida – 2,2 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 214,6 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 63,0 % ini tashkil etdi.



**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**




2021-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Sayxunobod tumanida – 100 %, Sardoba tumanida – 100 %, Yangiyer shahrida – 100 %, Xovos tumanida – 99,9 %, Oqoltin tumanida – 99,3 %, Guliston shahrida – 80,9 % ni. Eng past ko'rsatkich Shirin shahrida – 2,9 % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar - sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 2713,6 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



## 2021- yilning yanvar - sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumanida (674,0 mlrd. so'm), Guliston shahrida (517,4 mlrd. so'm), Yangiyer shahrida (271,5 mlrd. so'm), Boyovut tumanida (270,3 mlrd. so'm) tuman (shahar) lar hissasiga to'g'ri keladi. Shirin shahrida (20,6 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2021- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 39,6 foizni tashkil etdi.



**2021- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sardoba tumanida (100 %), Boyovut tumanida (90,6 %), Xovos tumanida (86,1 %), Mirzaobod tumanida (79,3 %), Guliston shahrida (68,2 %) ni tashkil etdi. Shirin shahrida (0,8 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2439,5 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 91,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati % da 2020-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 105,7 foizni tashkil qildi.



## 2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahrida (995,8 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (427,6 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (186,0 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (234,2 mlrd. so'm), Sardoba tumani (76,2 mlrd. so'm), Oqoltin tumani (137,1 mlrd. so'm), va Sayxunobod tumani (95,7 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1743,0 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 78,1 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati % da 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 100,6 foizni tashkil qildi.




## 2021- yilning yanvar- sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahrida (597,0 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (207,9 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (142,5 mlrd. so'm), Yangiyer shahrida (141,4 mlrd. so'm), Boyovut tumanida (116,6 mlrd. so'm), Guliston tumanida (162,4 mlrd. so'm) hamda Oqoltin tumanida (109,5 mlrd. so'm) qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 1656,3 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 54,4 % ini tashkil qildi. 2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan oʻsish surʻati 117,4 % ni tashkil qildi.




## 2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Guliston shahri (467,8 mlrd. soʻm), Sirdaryo tumani (311,7 mlrd. soʻm), Yangiyer shahri (186,0 mlrd. soʻm), Mirzaobod tumani (111,5 mlrd. soʻm), Xovos tumani (98,9 mlrd. soʻm), Sayxunobod tumani (92,8 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keladi.






2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 93,9 foizni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati - 103,7 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 88,1 foizni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati - 106,1 foizni tashkil qildi.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 94,9 foizni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107,9 foizni tashkil qildi.


2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,2 foizni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 foizni tashkil qildi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalardan tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **531** ta respondentlar ishtirok etdi.



**2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,6 % (35 ta), sanoatda – 15,8 % (84 ta), qurilishda – 13,2 % (70 ta), savdoda – 41,6 % (221 ta), xizmatlar sohasida – 22,8 % (121 ta) ni tashkil etdi.



## 2021- yil III choragida kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning III choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 49,0 % ni, xizmatlarda 21,5 % ni, sanoatda 13,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda 37,2 % ni, xizmatlarda 23,5 % ni, sanoatda 18,1 % ni tashkil etdi.



## 2021- yil III choragida kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi, % da


Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin uch oydagi oʻzgarishlar istiqboli** boʻyicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda 45,9 %, xizmatlarda 23,5 %, sanoatda 16,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin uch oydagi oʻzgarishlar istiqboli** boʻyicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng koʻp ulushi savdoda 36,8 %, xizmatlarda 22,6 %, sanoatda 15,9 % ni tashkil etdi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo‘limi**

Nashr uchun mas’ul: Sh.O‘razaliev.

Tel.: (67) 236-86-16

